



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari .....	98
<b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash .....	102
<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта .....	106
<b>Панжиева Назокат Нормаматовна</b>	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации .....	111
<b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	



# MAKTABGACHA TA'LIMDA XALQARO MONITORING VA BAHOLASH DASTURLARINING O'RNI

Mutalova Dilnoza Abdurashidovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti”  
kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0000-0001-6836-8301

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni, ularning ta'lim sifati, bolalar rivojlanishi, pedagogik jarayon samaradorligi hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashdagi ahamiyati yoritiladi. Xalqaro baholash dasturlari ta'lim muassasalarida bolalarning kognitiv, ijtimoiy-emotsional, nutqiy, kommunikativ va ijodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tizimli kuzatish, mavjud muammolarni aniqlash va ta'lim mazmunini takomillashtirish imkonini beradi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni baholashda xalqaro tajribadan foydalanish, indikatorlar asosida monitoring olib borish, pedagoglarning kasbiy faoliyatini tahlil qilish hamda ta'lim muhitining rivojlantiruvchi xususiyatlarini baholash masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro monitoring natijalarini milliy ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish, baholash jarayonida bolaning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi asoslanadi. Tadqiqotda xalqaro baholash mexanizmlari maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va ta'lim jarayonining natijadorligini aniqlashda muhim metodik vosita sifatida talqin qilinadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, xalqaro monitoring, baholash dasturlari, ta'lim sifati, bolalar rivojlanishi, pedagogik diagnostika, ta'lim muhiti, indikatorlar.

**Abstract:** This article examines the role of international monitoring and assessment programs in the preschool education system, emphasizing their importance in improving educational quality, supporting child development, increasing the effectiveness of the pedagogical process, and providing a scientific basis for management decisions. International assessment programs make it possible to systematically observe indicators of children's cognitive, socio-emotional, speech, communicative, and creative development, identify existing problems, and improve educational content. The article discusses the use of international experience in assessing preschool children, the organization of monitoring based on indicators, the analysis of teachers' professional activity, and the evaluation of the developmental potential of the educational environment. Special attention is paid to the need to adapt international monitoring results to the conditions of the national education system while taking into account children's age-related, psychological, and individual characteristics during the assessment process. The study interprets international assessment mechanisms as an important methodological tool for improving the quality of preschool education, introducing pedagogical innovations, and determining the effectiveness of the educational process.

**Key words:** preschool education, international monitoring, assessment programs, educational quality, child development, pedagogical diagnostics, educational environment, indicators.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль международных программ мониторинга и оценки в системе дошкольного образования, их значение в повышении качества образования, развитии детей, эффективности педагогического процесса и научном обосновании управленческих решений. Международные оценочные программы позволяют системно отслеживать показатели когнитивного, социально-эмоционального, речевого, коммуникативного и творческого развития детей, выявлять существующие проблемы и совершенствовать содержание образования. В статье анализируются вопросы использования международного опыта в оценке детей дошкольного возраста, организации мониторинга на основе индикаторов, изучения профессиональной деятельности педагогов, а также оценки развивающего потенциала образовательной среды. Особое внимание уделяется необходимости адаптации результатов международного мониторинга к условиям национальной системы образования, а также учёту возрастных, психологических и индивидуальных особенностей ребёнка в процессе оценки. В исследовании международные механизмы оценивания рассматриваются как важный методический инструмент повышения качества дошкольного образования, внедрения педагогических инноваций и определения результативности образовательного процесса.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, международный мониторинг, программы оценки, качество образования, развитие детей, педагогическая диагностика, образовательная среда, индикаторы.

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim inson shaxsining keyingi intellektual, ijtimoiy, emotsional va axloqiy rivojlanishi uchun poydevor yaratadigan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning nutqi, tafakkuri, muloqot madaniyati, mustaqil harakat qilish ko'nikmalari, atrof-muhitni idrok etish qobiliyati va o'quv faoliyatiga dastlabki tayyorgarligi shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim sifatini baholash, undagi pedagogik jarayonlarni doimiy monitoring qilish va rivojlanish natijalarini ilmiy asosda tahlil qilish zamonaviy ta'lim siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda xalqaro monitoring va baholash dasturlari ta'lim tizimlarining samaradorligini aniqlash, turli davlatlar tajribasini solishtirish, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni belgilash hamda strategik qarorlar qabul qilishda muhim vositaga aylanmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida bunday dasturlar faqat bolaning bilim darajasini o'lchash bilan cheklanmaydi, balki uning rivojlanish muhiti, pedagog va tarbiyachilarning kasbiy yondashuvi, ota-onalar bilan hamkorlik, o'yin faoliyati, kommunikativ faollik va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini ham qamrab oladi. Bu esa baholashni keng pedagogik va psixologik mazmunga ega jarayon sifatida talqin etishni talab qiladi.

O'zbekiston sharoitida maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, qamrov darajasini oshirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini sifat jihatidan takomillashtirish jarayonlari xalqaro baholash mezonlariga mos monitoring tizimini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan indikatorlar milliy ta'lim tizimining mavjud holatini tahlil qilish, bolalarning rivojlanish darajasini aniqlash, pedagogik muhitning samaradorligini baholash va muammoli jihatlarni o'z vaqtida bartaraf etishga xizmat qiladi. Bunda baholash jarayoni bolaning yosh xususiyatlariga mos, stresssiz, kuzatuvga asoslangan va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi muhimdir.

Mazkur mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, xalqaro monitoring va baholash dasturlari maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning metodik, tashkiliy va boshqaruv asoslarini aniqlashga yordam beradi. Ular orqali ta'lim jarayonidagi real natijalar, pedagogik yondashuvlarning samaradorligi, bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi va ta'lim muassasalarining rivojlanish imkoniyatlari aniq ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Shu jihatdan xalqaro monitoring dasturlarini o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish maktabgacha ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining ilmiy asoslarini yoritishda mahalliy va xorijiy manbalar muhim nazariy-metodik tayanch vazifasini bajaradi.

Abduqodirov, Qodirova, Sodiqova hamda Mavlonova kabi mualliflar maktabgacha ta'lim jarayonida bolaning yosh xususiyatlari, pedagogik muhit, tarbiyachi faoliyati va ta'lim mazmunining rivojlantiruvchi ahamiyatini asoslab bergan.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi va davlat talablari bolalar rivojlanishini tizimli kuzatish hamda baholash mezonlarini milliy sharoitda qo'llash imkonini beradi.

UNESCO, UNICEF, OECD va Jahon banki tadqiqotlarida esa erta bolalik davrida sifatli ta'lim, teng imkoniyatlar, maktabga tayyorgarlik va monitoring indikatorlarining xalqaro ahamiyati ochib berilgan.

Harms, Laevers, Pianta va Sylva ishlarida ta'lim muhiti, bolaning faolligi, emotsional farovonligi va pedagogik o'zaro ta'sirni baholash metodlari chuqur tahlil qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rnini aniqlash uchun nazariy-tahliliy, qiyosiy, pedagogik kuzatuv, kontent-tahlil, umumlashtirish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy-tahliliy metod orqali maktabgacha ta'lim sifatini baholashga oid ilmiy qarashlar, xalqaro tajribalar, pedagogik diagnostika tamoyillari hamda bolalar rivojlanishini monitoring qilishga doir metodik yondashuvlar o'rganildi. Bu jarayonda baholashning faqat nazorat vositasi emas, balki ta'lim jarayonini rivojlantirish, pedagogik faoliyatni takomillashtirish va bolaning individual imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi tizimli jarayon ekanligi asos qilib olindi.

Qiyosiy tahlil metodi xalqaro monitoring va baholash dasturlarining mazmuniy xususiyatlarini milliy maktabgacha ta'lim tizimi ehtiyojlari bilan solishtirish imkonini berdi. Bunda bolalarning kognitiv rivojlanishi, nutqiy faolligi, ijtimoiy-emotsional moslashuvi, ijodiy qobiliyati, mustaqil faoliyatga tayyorgarligi va maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlashga xizmat qiladigan indikatorlar tahlil qilindi. Xalqaro tajribada baholash jarayoni ko'proq kuzatuv, suhbat, faoliyat mahsulini o'rganish, rivojlantiruvchi muhitni baholash va pedagogik jarayon sifati bilan bog'liq ko'rsatkichlarga tayangan holda amalga oshirilishi aniqlandi.



Pedagogik kuzatuv metodi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kundalik faoliyati, o'yin jarayoni-dagi ishtiroki, tengdoshlari va tarbiyachi bilan muloqoti, topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi hamda emotsional holatini tahlil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Bu metod orqali baholashning tabiiy sharoitda olib borilishi, bolaga ortiqcha bosim o'tkazmasligi va uning real rivojlanish holatini aniqlashga yordam berishi ilmiy jihatdan asoslandi. Kontent-tahlil metodi orqali maktabgacha ta'lim dasturlari, davlat talablari, rivojlanish xaritalari, metodik qo'llanmalar va baholash mezonlarining mazmuni o'rganildi.

Tadqiqot metodikasida umumlashtirish va modellashtirish usullari ham muhim o'rin egalladi. Umumlashtirish orqali xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishda maktabgacha ta'lim sifati, pedagogik jarayon samaradorligi, boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va bolalar rivojlanishini individual qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar ajratib ko'rsatildi. Modellashtirish esa xalqaro monitoring natijalarini milliy sharoitga moslashtirish, baholash indikatorlarini tizimlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga tatbiq etishning metodik mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlaridan foydalanish ta'lim sifatini aniqlash, pedagogik jarayonni takomillashtirish va bolalar rivojlanishini tizimli kuzatishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Xalqaro baholash tajribasi shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini baholashda faqat bilim va ko'nikmalarni tekshirish yetarli emas. Baholash jarayoni bolaning nutqiy faolligi, muloqotga kirishish qobiliyati, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, ijodiy fikrlashi, mustaqil harakat qilishi va o'yin faoliyatidagi ishtirokini ham qamrab olishi lozim. Shu jihatdan xalqaro monitoring dasturlari maktabgacha ta'limni kompleks yondashuv asosida tahlil qilish imkonini beradi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, xalqaro monitoring dasturlari orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mavjud pedagogik muhitning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini aniqlash mumkin. Bunda guruh xonalarining jihozlanishi, didaktik materiallarning bolalar yoshiga mosligi, o'yin va ijodiy faoliyat uchun sharoitlar, tarbiyachining kommunikativ yondashuvi, bolalarning faol ishtiroki va ota-onalar bilan hamkorlik darajasi muhim ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Baholash natijalari pedagogik jarayonda qaysi yo'nalishlar kuchli, qaysi jihatlar esa qo'shimcha metodik yordamga muhtoj ekanligini aniqlashga xizmat qiladi.

Natijalar xalqaro monitoring va baholash dasturlarining maktabgacha ta'lim boshqaruvida ham samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Monitoring ma'lumotlari asosida ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilash, metodik xizmat sifatini oshirish va ta'lim dasturlarini takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, baholash indikatorlarining aniq belgilanishi ta'lim sifatini subyektiv qarashlar asosida emas, balki ilmiy asoslangan mezonlar orqali tahlil qilishga yordam beradi.

Tadqiqot davomida xalqaro tajribani bevosita ko'chirish emas, balki uni milliy ta'lim sharoiti, madaniy muhit, pedagogik an'analar va bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirish zarurligi aniqlandi. Maktabgacha ta'limda baholash jarayoni bolaning tabiiy rivojlanish ritmini buzmasligi, uni raqobat yoki bosim ostiga qo'ymasligi, aksincha, uning imkoniyatlarini ochishga xizmat qilishi kerak. Shu bois xalqaro monitoring dasturlaridan foydalanishda kuzatuv, suhbat, o'yin jarayonini tahlil qilish, faoliyat mahsulini o'rganish va rivojlanish xaritalarini yuritish kabi metodlar eng maqbul yondashuvlar sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining ahamiyati ularning ta'lim jarayoniga faqat nazorat nuqtayi nazaridan emas, balki rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mexanizm sifatida ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi. Bunday dasturlar pedagogik faoliyatning real holatini ko'rsatib beradi, bolalar rivojlanishidagi o'zgarishlarni kuzatishga imkon yaratadi va ta'lim muassasasida mavjud sharoitlarning bola ehtiyojlariga qanchalik mosligini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda baholash jarayoni ehtiyotkorlik, tabiiylik va pedagogik maqsadga muvofiqlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Chunki bu yosh davrida bolaning rivojlanishi murakkab, individual va dinamik xarakterga ega bo'lib, uni faqat standart topshiriqlar orqali baholash to'liq natija bermaydi.

Xalqaro monitoring dasturlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, ular ta'lim sifatini keng ko'lamda tahlil qiladi. Bunda bola, pedagog, oila, ta'lim muhiti, boshqaruv tizimi va metodik ta'minot o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishi faqat tarbiyachining faoliyatiga emas, balki guruhdagi psixologik muhit, o'yin maydonlari, didaktik vositalar, ota-onalar bilan hamkorlik va individual yondashuv darajasiga ham bog'liqdir. Shu sababli xalqaro baholash indikatorlari milliy tizimda ham kompleks yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida xalqaro baholash tajribasidan foydalanish ta'lim sifatini obyektiv tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq bu jarayonda xorijiy modellardan mexanik tarzda foydalanish maqsadga muvofiq emas. Har bir xalqaro metodika milliy qadriyatlar, tarbiyaviy an'analar, til muhiti, oilaning ta'limdagi ishtiroki va pedagogik amaliyot bilan uyg'unlashtirilishi zarur. Masalan, ayrim xalqaro dasturlarda bolaning mustaqil tanlov qilishi, erkin fikr bildirishi va muammoli vaziyatda yechim topishi asosiy mezon-

lardan biri sifatida qaraladi. Bu yondashuv milliy ta'lim amaliyotida ham muhim, ammo uni mahalliy pedagogik madaniyat, tarbiyachi va ota-ona munosabatlari bilan uyg'unlashtirish talab etiladi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro monitoring va baholash dasturlari maktabgacha ta'lim tizimida sifat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular pedagoglarni o'z faoliyatini tahlil qilishga, bolalar rivojlanishidagi individual farqlarni hisobga olishga, ta'lim muhitini muntazam boyitishga va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi. Shu jihatdan xalqaro baholash dasturlarining samaradorligi ularni to'g'ri tanlash, moslashtirish va amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish bilan bevosita bog'liqdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni ta'lim sifatini chuqur tahlil qilish, bolalar rivojlanishidagi real holatni aniqlash va pedagogik jarayonni ilmiy asosda takomillashtirish bilan belgilanadi. Ushbu dasturlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faqat nazorat vazifasini bajarib qolmay, balki rivojlantiruvchi, tashkiliy, metodik va boshqaruvga oid qarorlarni asoslashga xizmat qiladigan muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro baholash tajribasi shuni ko'rsatadiki, bolalar rivojlanishini aniqlashda ularning faqat bilim darajasi emas, balki nutqiy faolligi, ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi, ijodiy tafakkuri, o'yin faoliyatidagi ishtiroki, mustaqil harakat qilish qobiliyati va muloqot madaniyati ham hisobga olinishi lozim.

Tadqiqot asosida maktabgacha ta'limda baholash jarayoni bolaning yosh, psixologik va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarurligi aniqlandi. Bu bosqichda baholash bolaning tabiiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, uni ortiqcha raqobat yoki psixologik bosim ostiga qo'yimasligi kerak. Aksincha, baholash bola imkoniyatlarini ochish, uning kuchli tomonlarini aniqlash, qo'shimcha pedagogik yordamga muhtoj jihatlarni belgilash va shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga xizmat qilishi lozim. Shu bois xalqaro monitoring dasturlarini amaliyotga joriy etishda kuzatuv, suhbat, o'yin faoliyatini tahlil qilish, rivojlanish xaritalarini yuritish va ta'lim muhitini baholash kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro monitoring va baholash dasturlari O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi uchun sifat madaniyatini shakllantirish, pedagoglarning kasbiy refleksiya-sini rivojlantirish va ta'lim muassasalari faoliyatini aniq indikatorlar asosida baholash imkonini beradi. Biroq bunday dasturlarni bevosita ko'chirish emas, balki milliy ta'lim siyosati, mahalliy pedagogik an'analar, oilaviy tarbiya qadriyatlari va bolalarning rivojlanish xususiyatlariga moslashtirish muhimdir. Umuman olganda, xalqaro monitoring va baholash dasturlari maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bolalarning maktabga tayyorgarligini kuchaytirish va ta'lim tizimida ilmiy asoslangan boshqaruvni rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida katta amaliy ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov, A. A. (2019). Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Fan va texnologiya.
2. Azizxo'jayeva, N. N. (2006). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.
3. Mavlonova, R. A., To'rayeva, O. T., & Xoliqberdiyev, K. M. (2016). Pedagogika. O'qituvchi.
4. Qodirova, F. R., Toshpo'latova, Sh. Q., & A'zamova, M. N. (2019). Maktabgacha pedagogika. Tafakkur nashriyoti.
5. Sodiqova, Sh. A. (2017). Maktabgacha pedagogika. Tafakkur bo'stoni.
6. O'zbekiston Respublikasi. (2019). Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonun.
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. (2018). Ilk qadam davlat o'quv dasturi. Toshkent.
8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. (2020). Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat talablari. Toshkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2019). Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2022). Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. Toshkent.
11. UNESCO. (2015). Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. UNESCO Publishing.
12. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. UNESCO Publishing.
13. UNICEF. (2019). A world ready to learn: Prioritizing quality early childhood education. UNICEF.
14. OECD. (2017). Starting strong 2017: Key OECD indicators on early childhood education and care. OECD Publishing.
15. OECD. (2020). Early learning and child well-being: A study of five-year-olds in England, Estonia, and the United States. OECD Publishing.
16. World Bank. (2018). World development report 2018: Learning to realize education's promise. World Bank.
17. Harms, T., Clifford, R. M., & Cryer, D. (2015). Early childhood environment rating scale. Teachers College Press.
18. Laevers, F. (2005). Well-being and involvement in care settings: A process-oriented self-evaluation instrument. Leuven University Press.
19. Pianta, R. C., La Paro, K. M., & Hamre, B. K. (2008). Classroom assessment scoring system manual: Pre-K. Paul H. Brookes Publishing.
20. Sylva, K., Melhuish, E., Sammons, P., Siraj-Blatchford, I., & Taggart, B. (2010). Early childhood matters: Evidence from the effective pre-school and primary education project. Routledge.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.